

NAMANGAN O'ZBEK SHEVALARI TADQIQINING LISONIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA TARIXIY-GRAMMATIK ASOSLARI

Ajmadjonova Shahlo Mahmudjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik

va dialektologiya kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek dialektologiyasi tizimida o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Namangan viloyati o'zbek shevalari guruhining tadqiq etilish tarixi va fundamental grammatik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda V.P. Nalivkin va M.V. Nalivkinaning 1884-yildagi Namangan uyezdi shevalari lug'ati va grammatik ilovasi, akademik A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, I. Darvishov hamda professor A.Y. Aliyev kabi yirik dialektolog olimlarning ilmiy xulosalari asosida arxiv materiallari o'rganilgan. Maqolada Namangan shevalariga xos bo'lgan unlilar tizimidagi o'zgarishlar (umlaut hodisasi), kelishik tizimidagi variantdorlik, sintaktik ellipsis hamda qadimgi turkiy qatlam unsurlarining saqlanish qonuniyatlari izchil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Namangan shevalari, dialektologiya tarixi, Nalivkin lug'ati, turlanish paradigmasi, kelishik variantlari, umlaut hodisasi, qarluq lahjasi, arxiv materiallari, qiyosiy-tarixiy tahlil.

Kirish

O'zbek xalqining boy va ko'p qirrali madaniy o'tmishini, ijtimoiy-oilaviy munosabatlar iyerarxiyasini hamda nutqiy odob normalarini o'rganishda xalq lahjalari eng ishonchli lisoniy manba hisoblanadi. O'zbek dialektologiyasi tizimida Namangan viloyati shevalari o'zining rang-barang leksik-semantik tabiati, ko'p lahjali sintetik xususiyatlari hamda tarixiy arxaizmlarni saqlab qolganligi bilan alohida qiymatga ega.

Mintaqa shevalarining leksik-morfologik tizimini o'rganish shunchaki lisoniy to'plam yig'ish emas, balki xalqning o'tmishi, etnogenezi va madaniy taraqqiyotini yorituvchi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Namangan o'zbek shevalari materiallarida tarixiy-grammatik sathlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish o'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi, fonetik va morfologik taraqqiyot qonuniyatlarini chuqur anglash uchun pishiq poydevor vazifasini o'taydi.

Namangan o'zbek shevalarining tadqiq etilish tarixi bir asrdan ziyod davrni o'z ichiga olgan bir necha yirik bosqichlardan iborat. Mazkur hudud shevashunosligining tamal toshi sifatida V.P. Nalivkin va M.V. Nalivkina tomonidan 1884-yilda Qozon shahrida nashr etilgan "Russko-sartovski i sartovsko-russkiy slovar

obsheupotrebitelnix slov, s prilozheniyem kratkoy grammatiki (po narechiyamъ Наманганскаго уѣзда)» asarini e'tirof etish joiz [1]. Ushbu nodir asar XIX asr oxiridagi Namangan uyezdi aholisi jonli nutqini, uning lisoniy qurilishini aniq grammatik paradigmalar va turg'un jumlar yordamida muhrlagan dastlabki fundamental manba hisoblanadi.

XX asrning birinchi yarmida E.D. Polivanov (1933) va G'.O. Yunusov (1936) kabi olimlar o'zbek lahjalarining tasnifida Namangan shevasining o'rni va uning adabiy til shakllanishidagi voqea dialekti sifatidagi ahamiyatini belgilab berdilar [2; 3]. 1940-yillardan boshlab esa akademik A.K. Borovkov Namangan o'zbek shevalariga xos bo'lgan "umlyautlashgan" yoki "uyg'urlashgan" (uygurizirovannye govory) fonetik xususiyatlarni, unlilarning lablanishi va torayishi qonuniyatlarini birinchilardan bo'lib ilmiy muomalaga kiritdi [4; 6].

XX asr o'rtalarida mintqa shevalarining fonetik qurilishini tizimli o'rganish Ibrohim Darvishov nomi bilan chambarchas bog'landi. Olim Namangan shevalarida cho'ziq unlilar, ğ tovushining faol ishlatilishi, sinkopa va assimilyatsiya hodisalari keng tarqalganini aniqladi [7]. Shuningdek, akademik V.V. Reshetov o'zining tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi va Namangan atrofidagi hududlarni Sharqiy turkiy fonetik arealning muhim markazi sifatida baholadi [8].

Namangan shevalarini areal jihatdan o'rganishda E. Begmatovning Samarqand shevalari [9], B. Jo'rayevning Qashqadaryo qarluq shevalari [10] hamda H. Sharipovning Janubiy Qirg'iziston o'zbek shevalari [14] bo'yicha olib borgan tadqiqotlari muhim qiyosiy material berdi. Morfologik va fonetik qurilishni o'rganishda Yo. Mirzayev [11] unlilarning lablanish darajasini o'rgangan bo'lsa, S. To'lakov (1965) egalik, kelishik va fe'l shakllarining Namangan shevasidagi o'ziga xos o'zgarish paradigmalarini ochib berdi [13]. Mintaqa shevashunosligining eng mukammal va yuqori bosqichi esa professor A.Yu. Aliyev faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u 1975-yilga kelib "Namangan o'zbek shevalari guruhi"ning lingvistik tabiatini doktorlik dissertatsiyasi darajasida monografik planda umumlashtirdi [10]. Leksik sathda esa M.Sh. Saidova (1995) Namangan o'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarini o'rganib, uning qadimiy turkiy ildizlarini yoritdi [15].

Maqolani tayyorlashda qiyosiy-tarixiy, sinxron-deskriptiv (tavsifiy) hamda etnolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Birlamchi lisoniy faktlar sifatida V. Nalivkin va M. Nalivkinaning 1884-yilgi asari muqovasi va uning grammatika qismidagi (6–12-sahifalar) asil qo'lyozma matnlari tahlilga tortildi:

1. XIX asr oxiri arxiv hujjatlarida morfologik va fonetik qonuniyatlar

V.P. Nalivkin va M.V. Nalivkinaning 1884-yilgi asari muqovasi va uning grammatika qismidagi (6–12-sahifalar) qo'lyozma matnlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mualliflar o'sha davr Namangan uyezdi og'zaki nutqidagi kelishik affikslarining o'ziga xos o'zgarish me'yorlarini aniq paradigmaviy jadvallar orqali

muhrlaganlar. Masalan, unli va undosh bilan tugagan soʻzlarning turlanish tartibida qaratqich kelishigi affiksining ogʻzaki soʻzlashuv tilida burun assimilyatsiyasi va singarmonizm qoldiqlari natijasida *-нымъ (-nim)* va mansublikni koʻrsatuvchi

-ныке (-nyke) variantlarida kelishi koʻrsatilgan:

Атамнымъ аты (Atamnim ati) — Otamning ismi;

Акамнымъ уйи (Akamnim uyi) — Akamning uyi;

Бу атъ адамныке (Bu at adamnyke) — Bu ot odamniki [1: 6-8].

1-jadval. Unli va undosh bilan tugagan soʻzlarning turlanish paradigmasi (1884-yilgi manba asosida)

Ushbu jadval maʼlumotlaridan tashqari, asarda ogʻzaki tilda tushum kelishigining qipchoqlashgan *-ды (-dy)* va *-ты (-ty)* variantlari oʻta faolligi aniq gaplar misolida koʻrsatiladi: *Атты (Atti) суғарди (Atni sugʻordi)*, *Уйди (Uydi) супурди (Uyni supurdi)* [1: 6].

Kelish shakli (Падежи)	Birlik shakli (Единственно е число)	O'zbe kcha o'qilishi (Транслитера ция)	Ko'plik shakli (Множественно е число)	O'zbek cha o'qilishi (Транслитерац ия)
Bosh (Именительн ый)	Найза / Адамъ	Nayza / Adam	Найзаяр ъ / Адамляръ	Nayzala r / Adamlar
Qarat qich (Родительны й)	Найза нынъ / Адамнынъ	Nayza ning / Adamning	Найзаяр нынъ / Адамлярнынъ	Nayzala rning / Adamlarning
Jo'nal ish (Дательный)	Найза га / Адамга	Nayza ga / Adamga	Найзалар га / Адамларга	Nayzala rga / Adamlarga
Tushu m (Винительны й)	Найза ны / Адамны	Nayza ni / Adamni	Найзаяр ны / Адамлярны	Nayzala rni / Adamlarni
Birgal ik (Творительн ый)	Найза біля / Адамъ біля	Nayza bila / Adam bila	Найзаяр ъ біля / Адамляръ біля	Nayzala r bila / Adamlar bila

Mazkur morfologik ko'rsatkich bugungi kunda ham Namangan viloyatining qipchoq lahjasi qishloq shevalari uchun yetakchi dialektal belgi hisoblanadi.

Sintaktik sathda esa so'zlashuv tilida tejamkorlik tamoyilining faolligi sababli tushum kelishigi affiksining butunlay tushib qolishi (*at aldim, uy saldy*) va miqdor ko'rsatilganda otlar ko'plik affiksini olmay, qat'iy birlik shaklida kelishi (*учъ кампыръ — uch kampir, конъ адамъ - ko'p odam*) turg'un model sifatida qayd etilgan [1: 7-8]. Sifat va son turkumlari tahlilida esa muloqotning emotsionalligini ta'minlovchi *-gina/-kina* erkalash-kichraytirish affikslari alohida paradigmaga solingan, masalan: *яхшигина, чирайликина (chiroyligina)* [1: 9]. Fe'l tizimida esa majhul va birgalik nisbatlarining (*кўришмоқ, учрашмоқ*) yasalishi, ortirma nisbatning o'ziga xos modellari (*кўргузмак — k'rsatmoq*) hamda hozirgi-kelasi zamonning *бир-а-мень (bera-men)* va bo'lishsizlikning *бир-май-мень (bermay-men)*, *бирганимъ ёкъ (berganim yo'q)* kabi ko'rinishlari berilgan bo'lib, ular

Namangan uyezdi soʻzlashuv tilining klassik turkiy (chigʻatoy) tili anʼanalari bilan genetik izchilligini isbotlaydi.

2. XX asr oʻrtalari va ikkinchi yarmidagi tizimli dialektologik tadqiqotlar. XX asrning oʻrtalariga kelib Namangan shevalarini tadqiq etish intensiv bosqichga kirdi. Akademik A.K. Borovkovning “umlyautlashgan” yoki “uygʻurlashgan” govorlar konsepsiyasi bu hudud nutqida unlilarning maʼlum bir taʼsir ostida oʻzgarishi, yaʼni til oldi unlilarining lablanishi yoki torayishi hodisasini mukammal izohladi. Borovkov Namangan shevalarini "voha shevalari" guruhiga kiritish bilan birga, ularning tarkibidagi qadimiy turkiy qatlamlarning barqarorligini ham isbotladi [6].

Mintaqa shevashunosligida Ibrohim Darvishov tomonidan amalga oshirilgan fonetik tadqiqotlar Namangan guruhida choʻziq unlilar ($\bar{a}$, $\bar{o}$, $\bar{u}$), $\check{g}$ tovushining oʻta faol ishlatilishi, sinkopa va assimilatsiya hodisalari keng tarqalganini ochib berdi. I. Darvishov Namangan shevalarini Fargʻona vodiysi qarluq shevalari tarkibida baholab, ularning Andijon va Fargʻona shevalari bilan fonetik yaqinligini, biroq *uğul* (oʻgʻil), *köz* (koʻz), *toğ* (togʻ) kabi qadimgi turkiy fonetik arxaizmlarni koʻproq saqlab qolganini ilmiy asosda koʻrsatdi [7].

Akademik V.V. Reshetov ham Namangan shevalarining fonetik xususiyatlarini umumturkiy fonetika bilan bogʻlab talqin qildi. Olim oʻzining “Основы фонетики и грамматики узбекского языка” asarida qadimgi turkiy tillarda unli uzunlik oppozitsiyasi (choʻziqlik farqlanishi) mavjud boʻlganini va bu tarixiy hodisaning lisoniy izlari hozirgi oʻzbek shevalarida, ayniqsa Fargʻona vodiysi va Namangan atrofida hududlarda barqaror saqlanib qolganini alohida taʼkidlaydi [8]. Reshetov Fargʻona mintaqasini Sharqiy turkiy fonetik arealning eng muhim markazlaridan biri sifatida baholadi va choʻziq unlilarning saqlanib qolishini til tarixiy taraqqiyotining uzluksizligi sifatida talqin qildi.

Namangan shevalarining areal hamda qiyosiy jihatdan oʻrganilishida professor E. Begmatovning Samarqand hududi shevalariga bagʻishlangan tadqiqotlari [9] hamda B. Joʻrayevning Qashqadaryo oʻzbek shevalari boʻyicha olib borgan ishlari [10] muhim oʻrin tutadi. Bu olimlar Qashqadaryo va Samarqand qarluq shevalarida ham choʻziq unlilar va ayrim qadimgi tovush shakllarining saqlanib qolganini qayd etib, bu holatni umumqarluq til qatlamining natijasi sifatida izohlaganlar va bu Namangan guruhi materiallari bilan ajoyib tipologik parallellik hosil qiladi.

Professor A.Yu. Aliyev oʻzining “Oʻzbek dialektologiyasidan materiallar” (1974) hamda 1975-yildagi doktorlik tadqiqotida Namangan guruhiga mansub shevalarning fonetik va morfologik xususiyatlarini eng yuqori akademik darajada umumlashtirdi [10]. Olim soʻz oʻzagidagi unlilarning maʼlum pozitsiyada yumshashi va torayishi (umlaut) jarayonida uygʻur tilining, ayniqsa Taranchi–Qashgʻar shevasining tarixiy taʼsiri muhim lisoniy omil boʻlganini aniqladi. Egalik, kelishik, koʻplik va feʼl shakllarida kuzatiladigan ayrim morfologik birliklar muayyan jihatdan

uygʻur tiliga yaqinligi bilan ajralib turishi, baʼzilar esa qadimgi oʻzbek tiliga xos reliktlar ekanligi Aliyev asarlarida toʻlaonli isbotlandi.

Namangan oʻzbek shevalarining shakllanish bosqichlari, lisoniy tabiati va tarixiy-grammatik tizimini tadqiq etish natijasida oʻzbek dialektologiyasi va tarixiy leksikologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan quyidagi fundamental ilmiy xulosalarga kelindi:

Nazariy-metodologik izchillik: Namangan viloyati shevalarining tadqiq etilish tarixi V. Nalivkinning 1884-yilgi lugʻatidan boshlab, XX asr oʻrtalaridagi V.V. Reshetov, I. Darvishov, A. Aliyev va M. Saidovalarning monografik ishlarigacha boʻlgan yirik ilmiy merosni qamrab oladi. Mazkur asarlar zamonaviy bosqichda hududiy shevalar dinamikasini oʻrganishda pishiq metodologik baza vazifasini oʻtaydi.

Morfologik reliktlarning saqlanishi: Nalivkinlar lugʻatining grammatika qismida (6–12-sahifalar) muhrlangan *-nim*, *-nyke* qaratqich kelishigi variantlari, *-di*, *-ti* tushum kelishigi affikslari hamda *bila*, *menan* koʻmakchi shakllari Namangan oʻzbek shevalari tizimida grammatik koʻrsatkichlarning birkish doirasida lisoniy relik (qoldiq) sifatida yashashda davom etayotganini koʻrsatadi.

Tarixiy-fonetik barqarorlik: Sh. Shoabdurahmonov, I. Darvishov, V.V. Reshetov va A. Aliyev kabi yirik olimlar tomonidan Namangan shevalarida aniqlangan choʻziq unlilar, umlaut hodisasi hamda arxaik oʻzaklar mintaq shevalarining oʻzbek tili tarixiy grammatikasi va fonetik tizimini yoritishda eng ishonchli va barqaror manba ekanligini toʻliq tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Наливкин, В.П., Наливкина, М.В. Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов, с приложением краткой грамматики (по наречиям Наманганского уезда). – Казань: Типография Университета, 1884. – 250 с.
2. Поливанов, Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933. – 140 с.
3. Юнусов, Ф.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқув-ўздавнашр, 1936. – 64 б.
4. Боровков, А.К. К характеристике узбекских “умляютных” или “уйгуризованных” говоров // Белек – Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29-31.
5. Боровков, А.К. Вопросы классификации узбекских говоров // Изв. АН УзССР. – № 5. – 1953. – С. 58-74.
6. Боровков, А.К. Узбекские говоры Наманганской области // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 5-30.
7. Дарвишов, И. Наманган вилояти ўзбек шевалярининг фонетик тизими. – Тошкент: Фан, 1972. – 165 б.

- 8 Решетов, В.В. Основы фонетики и грамматики *uzbekskogo yozika*. – Ташкент: ГИХЛ УзССР, 1961. – 230 с.
- 9 Бегматов, Э. Самарқанд гуруҳи ўзбек шеваларининг фонетик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 45-52.
- 10 Жўраев, Б. Қашқадарё ўзбек шевалари (фонетика, морфология). – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 112-118.
- 11 Алиев, А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ... докт. фил. наук. – Тошкент, 1975. – 52 с.
- 12 Мирзаев, Ё. Ўзбек тили Наманган шеваларининг морфологик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1968. – 180 б.
- 13 Атамирзаева, С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974. – 195 с.
- 14 Тулаков, С. Морфологические особенности наманганского говора: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1965. – 22 с.
- 15 Sharipov, H. Janubiy Qirg'iziston o'zbek shevalari: Avtoref. dis. ... kand. fil. nauk. – Toshkent, 1967. – 21 s.
- 16 Саидова, М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 21 б.